

ALISHER NAVOIYNING “MUNSHAOT” ASARI LEKSIKASI VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Yo'ldoshev Ibrohim Jo'rayevich

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika univeversiteti Filologiya fakulteti “O'zbek tili va adabiyoti” kafedrası professori, filologiya fanlari doktori.

E-mail: ibrohimyuldashev0101@gmail.com

Abduhakimova Dilrabo Ikramjon qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Filologiya fakulteti “O'zbek tiili va adabiyoti” yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

E-mail: dilraboabduhakimova2209@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va so'z san'atkori Alisher Navoiyning “Munshaot” asaridagi leksik qatlam va uslubiy xususiyatlar keng ko'lamda tahlil etildi. Bu asar o'z davrining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy hayotini so'z orqali yorituvchi nodir manbalardan biridir. “Munshaot” asaridagi maktublarda ishlatilgan rasmiy, diniy va badiiy nutq unsurlari o'zaro uyg'unlashib, yozma nutqning o'ziga xos uslubini shakllantirgan. Maqolada aynan shu leksik birliklarning semantik tahlili, uslubiy bo'yoqdorligi ilmiy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqot ushbu asarni Navoiy nasriy merosining eng yetuk namunasi sifatida ko'rib, uning o'zbek adabiy tilining rivojiga qo'shgan hissasini tahlil asosida yoritadi.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, “Munshaot”, leksika,*

Аннотация: *В данной статье всесторонне анализируются лексические пласты и стилистические особенности произведения Алишера Навои «Мунишаот». Это сочинение является одним из редких источников, отражающих социально-политическую, культурную и духовную жизнь своего времени посредством языка. В письмах «Мунишаота» гармонично сочетаются официальные, религиозные и художественные элементы речи, что формирует своеобразный стиль письменного языка. В статье исследуются семантическая структура лексических единиц, их стилистическая окраска и выразительные средства. Работа рассматривает «Мунишаот» как одно из самых зрелых произведений прозы Навои и аналитически раскрывает его вклад в развитие узбекского литературного языка.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, Мунишаот, лексика*

Annotation: *This article provides a comprehensive analysis of the lexical layers and stylistic features in Alisher Navoi's work “Munshaot.” The collection serves as one of the rare sources reflecting the socio-political, cultural, and spiritual life of its time through language. The letters contained in “Munshaot” combine official, religious, and artistic linguistic elements, forming a unique written style. The paper explores the semantic structure of these lexical units and their stylistic coloring from a linguistic perspective. The study considers “Munshaot” as one of the most mature examples of Navoi's prose heritage and analytically reveals its contribution to the development of the Uzbek literary language.*

Keywords: *Alisher Navoi, Munshaot, lexicon*

Alisher Navoiy ijodi o'zbek adabiy tilining shakllanishida va rivojlanishida ham beqiyos o'rin tutadi. Shu o'rinda muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning: "Navoiy merosi bizni birlikka, mehrga, yuksak ma'naviyatga chorlaydi. U insonparvarlik g'oyalari orqali bugungi avlod uchun ham hayotiy dasturulamal bo'lib qolmoqda", - kabi so'zlarini aytib o'tish bejiz emas. "Munshaot" asari uning nasriy merosida alohida ahamiyat kasb etib, til, uslub va ifodaning o'ziga xos namunasi sifatida e'tiborga loyiqdir. Asar oddiy maktublar majmuasi bo'libgina qolmay, XV asr yozma nutqining uslubiy jozibadorligini namoyon etuvchi, adabiy til me'yorlari shakllanishida salmoqli rol o'ynagan tarixiy manba hisoblanadi. Ushbu to'plam orqali shoirning badiiy tafakkuri, davlat yuritish ishi, muloqot odobi shuningdek, o'z davrining ijtimoiy-siyosiy ko'rinishi tildagi leksik birliklar bilan yorqin ifodasini topgan. Boltaboyevning tadqiqotida Navoiy nasrining o'ziga xos poetik uslubi, ya'ni so'z tanlashdagi aniqligi, badiiylikka moyilligi, arabcha-forscha leksika bilan turkiy so'zlarning uyg'unlashuvi va rasmiy maktub tiliga xos murakkab iboralar keng yoritiladi. Asarda arabiy, forsiy va turkiy unsurlar qo'shilib, Navoiy nasrining badiiy jilosini va rasmiy ohangini yaratgan. Shuning uchun ham ushbu asarni lingvistik nuqtai nazardan o'rganish, undagi leksik qatlamlarni tahlil qilish va uslubiy xususiyatlarni aniqlash asar mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Asar 1498-1500 yillar oralig'ida yozilgan bo'lib, jami 77 ta maktubni o'z ichiga oladi.

Asarning ahamiyatli jihati shundaki, Navoiy davridagi yozish madaniyati, diplomatik til va muloqot uslublari ochiq aks ettirib berilgan. Husayn Boyqaro nomiga yozilgan maktublar asarda eng ko'p o'rinni egallagan. Unda yozuvchi podshohga sadoqat, davlat ishlari, adolat va xalqparvarlik haqida yozadi. Bir maktubda shunday keltiradi: "Padarig'o shohgarchand saltanat sizg'a erishg'on, ammo adolat ila xalqning ko'nglini olish sizg'a vojibdir". Bu fikr Navoiy davlat boshqaruvida adolatni eng oliy fazilat deb bilganini ko'rsatadi.

Shoir o'z maktublarida so'z tanlashda o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashgan. U rasmiy ohangni saqlagan holda, o'quvchiga hurmat, samimiyat va odobni so'zlar orqali ifodalashni maqsad qilgan. So'zlar nafaqat ma'no, balki ohang orqali ham ta'sir etadi. Shuningdek, ayrim maktublarda yozuvchi o'zining dardini, minnatdorchiligini yoki shaxsiy his-tuyg'ularini juda samimiy tarzda bayon etadi. Undagi tabiiylik, so'zning ohangdorligi, fikrning oqimi Navoiy tilining go'zalligini yanada yorqinroq namoyon etadi.

Vaqt o'tishi bilan yangi so'zlarning paydo bo'lishi, xalq nutqiga boshqa tillardan leksik birliklarning kirib kelgani va eski so'zlarning asta-sekin unutilgani sababli asardagi ayrim so'zlardan bugungi kunda faol qo'llanilmaydi. Navoiy davrida faol qo'llagan, biroq hozirda iste'moldan chiqqan bu so'zlar orqali o'sha zamonning til boyligini, nutq madaniyatini va ma'naviy olamini tassavvur etish mumkin.

Ofarinish [أفرينش] so'zi fors tilidan o'zlashgan bo'lib, "yaratilish", "vujudga kelish" ma'nolarini anglatadi. "...ofarinish avroqig'a raqam qildi"⁷³ iborasi orqali shoir Allohning yaratuvchanlik qudrati bilan olam sahifasiga hayot va go'zallik yozilganini ifoda etmoqda.

Arab tilidan o'zlashgan alfoz [ألفاظ] so'zi esa "lafzlar", "so'zlar" degan ma'noni bildiradi. Birlik shaklda lafz [لفظ] tarzida qo'llaniladi. Navoiy bu so'zga oddiy so'z deb emas, badiiy, ma'noli va fasohatli nutqning vositasi sifatida qaraydi. Shu bilan birga "Muhokamat ul-lug'atayn", "Majolis un-nafois" kabi asarlarida alfoz haqida turlicha tushunchalar beradi. Shuningdek, asarda kalom [كلام] iborasi ham qo'llanilgan bo'lib, "so'z" ma'nosini ifodalaydi. So'zlarning ma'nosi ularni sinonimdek ko'rsatgani bilan ularning tag ma'nosi farq qiladi. Keltirilgan so'zlarning farqi shundaki, alfoz so'zning tashqi shaklini ifodalab keladi, kalom esa ma'no anglatuvchi shaklni ifodalaydi.

Asarda anjumanpardozlig' [پردوزلیک أنجمن] so'zi o'zbek tilida arab va fors so'zlar bilan boyitilgan shaklda ishlatilgan. "Majlisni qizituvchilik" ma'nosini bildiradi. Masalan: "Chun ul biyik poyag'a sarafrozlik va ul oliy maqomda anjumanpardozliq dast berdi"⁷⁴. Bu kabi arab va fors so'zlarni qo'shib hech kimda uchramaydigan betakror so'zlardan foydalangan holda o'z asarlarining leksikasini boyitgan. Bunday leksik vosita orqali Navoiy o'quvchini tafakkur qilishga, tashqi ko'rinishdan ichki sifatlarni ajratishga undaydi.

Fiqarot [ا. فِقْرَة] so'zi "parchalar" degan ma'noni bildirib kelib, asarda rangin fiqarot shaklida qo'llaniladi va "chiroyli parchalar" chuqur badiiy ma'no anglatuvchi birikmaga aylanadi. So'zlarning ohangdorligi, go'zal ifoda bilan kelishi asarning uslubiy boyligini namoyon etibgina qolmay, estetik ohangni ham o'quvchiga yetkazib beradi.

Asardagi so'zlar tasviriy badiiy obrazlar orqali insonni nafis go'zallik va axloqiy kamolotga yetaklaydi. Falak [فَلَك] arabcha so'zdan olingan bo'lib "osmon" ma'nosini bildiradi, qamar [قَمَر] so'zi ham arab tilida "oy" birligini ifodalab keladi.

Avjiki bitib falak simog'in,

Qoplondin olib qamar tuvog'in.⁷⁵

Yuqoridagi baytda Navoiy falak simog'i va qamar kabi obrazlaridan foydalanib, olam go'zalligini tasvirlaydi. Tabiat va olam manzarasi orqali inson ruhiyati qadriyatlari tasvirlanga. Misralar ohangdor va ritmik, bu Navoiy she'riyatiga xosligini namoyon etadi.

Alisher Navoiy asarlarda so'z qo'llashi jihatidan juda boy va nafis til egasi hisoblanadi. U til orqali o'quvchining qalbiga zavq bag'ishlaydigan, ruhini yoritadigan san'at namunalarini yaratadi. Mutafakkir so'zdan so'z yasash bilan ham asarining mazmunini oshiradi. Sarafrozlik [سرافروزیلیک] so'zi "yuksaklik", "yuqori darajalik" ma'nolarini bildirib kelib, fors tilidagi "yuksak" ma'nosini anglatuvchi sifat sarafroz [سرافروز] so'zidan yasalgan.

⁷³ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n to'rtinchi tom. Munshaot. —T.: Fan nashriyoti, 1998. — B.136

⁷⁴ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n to'rtinchi tom. Munshaot. — T.: Fan nashriyoti, 1998. — B.137

⁷⁵ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n to'rtinchi tom. Munshaot. —T.: Fan nashriyoti, 1998. — B.136

Asarda soʻzlar shunday bir mahorat bilan qoʻllanganiki, ikki hil maʼno ifodalovchi soʻzlarni ham mazmunan moslab yozilganligi Navoiy ilmining yuksakligidan dalolatdir. Ham [a. هم] soʻzi “gʻam”, “qaygʻu” maʼnosini ifodalaydi va boshqa oʻrinlarda bogʻlovchi soʻz vazifasida qoʻllanadi.

To fasli bahor zebi olam boʻlgʻay,
Ul zeb ila bogʻ sabzu xurram boʻlgʻay.
Lutfung har bir elga damodam boʻlgʻay,
Gah-gah bizim jonibimiz ham boʻlgʻay.⁷⁶

Navoiy har bir soʻzni badiiy taʼsirga ega qilib yaratish, undan adabiyotda mahorat bilan foydalanishning yuksak darajasiga erishgan shoirdir. “Kulcha”, “toʻgarak narsa” mazmunini beruvchi kulicha [f. كوليتشا] soʻzidan foydalanib, “quyosh” soʻzini majoziy maʼnoda ifodalashda kulicha oltun birikmasini asarda qoʻllagan: “Chun sipehr zargarining anhuri uchidan bir kulicha oltun sekrib suvgʻa tushti, yaʼni charx korxonasida javzoning ikki paykari arosidin quyosh qursi saraton obgirigʻa tahvil qildi”.⁷⁷

Shuningdek, Navoiy tilining boyligiga yana bir sabab qilib, uning asarlaridagi sinonimlarni koʻpligini keltirish mumkin. Bir tushunchani turlicha ifodalash orqali asarning uslubiy jozibasini kuchaytiradi. Misol uchun asardagi “osmon” maʼnosini bildiruvchi sipehr [f. سپهر], gardun [f. گردون], charx [f. چرخ] va falak [a. فَلَك] kabi qoʻllanilgan shakllar asarning lugʻat boyligini, yozuvchining soʻz ustaligini va ifoda mahoratini namoyon etadi.

Xulosa oʻrnida aytish joizki, Alisher Navoiy oʻzining “Munshaot” asarida til imkoniyatlaridan mohirona foydalanib, ularning maʼnosini chuqurlashtirgan, shakliga badiiy jilo bergan. Asar oʻz davrining ijtimoiy-siyosiy hayotini yorituvchi tarixiy hujjat, balki yuksak badiiylikka ega nasriy yodgorlik sifatida hameʼtirof etiladi. Leksik qatlam esa oʻsha davr turkiy tili, arabcha va forsa unsurlar oʻzaro uygʻunlashgan, murakkab, ammo goʻzal tizimni tashkil etganini koʻrsatadi. Navoiy nasrining eng asosiy fazilati— soʻzga estetik ruh bagʻishlash, rasmiy uslubni badiiy ifoda bilan mujassamlashtirishdir. Maktublarda uchraydigan ayrim soʻzlar bugungi kun tilimizda isteʼmoldan chiqqan boʻlsa-da, ularning semantik qiymati, badiiy ohangi va madaniy yukini tahlil etish oʻzbek tilining tarixiy tarqqiyotini chuqurroq anglashga yordam beradi. “Munshaot” – bugungi oʻquvchi uchun ham til goʻzalligi, fikr boyligi va insoniylik timsoli sifatida qadri baland adabiy meros.

⁷⁶ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. Yigirma tomlik. Oʻn toʻrtinchi tom. Munshaot. —T.: Fan nashriyoti, 1998. — B.138

⁷⁷ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. Yigirma tomlik. Oʻn toʻrtinchi tom. Munshaot. — T.: Fan nashriyoti, 1998. — B.138

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n to'rtinchi tom. Munshaot.—T.: Fan nashriyoti, 1998. – 315 b.
2. Navoiy asarlar lug'ati.—T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. –784 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. IV jildli. II jild. —T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti,2019.—671 b.
4. Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. IV jildli. I jild. –T.: Fan, 1983—636 b.